

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI TARIX
FAKULTETI UMUMIY TARIX KAFEDRASI**

MAVZU: XIX asrning boshlarida xalqaro munosabatlar

REFERAT

BAJARDI: ABDUQODIROV D. 401-GURUH.

TEKSHIRDI: GADOYEV H.

SAMARQAND 2013

XIX asrning boshlarida xalqaro munosabatlar

Kirish

1. Napoleonning diplomatiyasi
2. Qit'a qamali va Tilzit sulxi.
3. Erfut uchrashuvlari.
4. Xulosa

Kirish

1799 yil 18 bryumer (9 noyabr) da o'tkazilgan davlat to'ntarishi natijasida hokimiyatni o'z qo'liga olgan va Fransiyada yakka xokimlik tartibini o'rnatib, 15 yil mobaynida butun hokimiyatni o'z qo'lida saqlagan Napoleon Bonapartni ko'pgina zamondoshlari buyuk diplomat va ulug' sarkarda deb hisoblaganlar.

Napoleon Bonapart o'zining birinchi harbiy yurishlari davridayoq, 1796-1797 yillar Italiyaga borganda avstriyaliklar bilan Leoben va Kampo-Formioda bo'lgan muzokaralarda va mamlaklar bilan, keyinchalik turklar bilan Suriya, Misr uchun 1798-1799 yillarda bo'lgan urushlar davrida o'z davlati va uning xukumatidan hech qanaqa vakolat olmasdan diplomatik munosabatlar olib borgan va Fransiyaning o'sha davrdagi hukumati Direktoriyaning ruxsatisiz traktatlar va shartnomalar imzolagan.

Hindistonda Maysori sultoni bilan olib borgan muzokaralarida umumiy dushman bo'lgan Angliyaga qarshi kurash masalasida ham huquqiy ruxsatisiz o'z ixtiyori bilan muzokara yurgizadi.

1799 yilning noyabrida xukumat tomonidan berilgan vakolat davrida u xech kim bilan hisoblashmasdan Fransiyaning buyuk xokimi sifatida ish tutadi.

Bonapart o'z do'stlari, ayniqsa Taleyran vositachiligida xokimiyatni o'z qo'liga

olgach, tashqi ishlar vaziri qilib knyaz Taleyrn-Perigorni tayinlaydi. Chunki Talenran Bonapart Misrda bo'lgan vaqtda unga xatlar yozib, Siz Fransiyaning bo'lajak xukmdorisiz, deb uni ko'klarga ko'tarib, maqtagandi. Taleyrn o'z lavozimida 1807 yilgacha turib, o'z xukmdoriga sodiq xizmat qildi. Napoleon o'z vazirini oddiy ijrochi sifatida ishlatsa ham, lekin uni ko'p qadrlar edi. Taleyrn tomonidan tuzilgan hamma dipdomatik munosabatlarning mazmuni Bonapart tomonidan aytilardi. Taleyrn bergan maslaxatlar esa, Napoleonga ma'qul bo'lgandagina qabul qilinardi, yoqmasa uni albatta rad etardi.

Taleyrn esa, o'z xukmdorini, ayniqsa Bonapart xokimligining dastlabki yillarida diplomatiya san'atining ustasi deb xisoblardi. Taleyrn fikricha Napoleon faoliyatida Til'zit sulxi davri buyuk burilish bo'lib. Tilzitdan so'ng Napoleonning ravnaq topgan tashqi siyosati. ya'ni diplomatisi tushkunlikka uchrab, keyinchalik Buyuk imperiyaning xalokatiga olib kelgan.

Napoleonning diplomatiyadagi faoliyatini taxlil qilib ko'rganda, shunday xulosaga kelish mumkin, uning imperiyasi Tilzit sulxidan so'ng emas, balki undan ancha oldinrok, ya'ni 1806 yilning 21 noyabrida Britaniya orollarini qo'rshovi haqida yaratilgan "mashxur" dekretning imzolanishidan boshlanadi.

Napoleonning diplomatiyasi

Napoleon diplomatiyasining asosiy mazmuni, bu Qitada davlatlar o'rtasidagi muvozanatni buzmasdan o'z dushmanlaridan uch olish va ularni o'ziga itoatkor qilish. Avvalo Avstriyadan, keyinchalik Italiyadan, shuning bilan birga Suvorov g'alabalarining oqibatlarini yuqotish edi.

Mareng'o yonidagi galabadan so'ng ham Avstriya o'zini mag'lub, ya'ni yengilgan deb hisoblamasdi. Prussiya qiroli esa Fransiya qarshi xarakat qilishga urinmasdi. Ispaniya burbonlari itoat etishga moyil edilar. Germaniya davlatlari esa do'stlik xissiyotlarini bayon qilishga tayyor edilar. Bunday sharoit Bonapart uchun bosqinchilik rejalarini amalga oshirishga katta imkoniyat yaratdi. 1800-1812 yillar davomida u Angliyani tez cho'ktirish va Rossiya bilan

mudofaa va harbiy qurolli hujum ittifoqini tuzish uchun xarakat qildi.

Rossiya bilan ittifoqsiz Qit'ada Napoleon o'z ta'sirini o'tkaza olmasdi. o'tkazgan holda ham u mustahkam bo'lmasdi. Mustahkam xukmronlikka ega bo'lmasdan Brntaniya orollariga qarshi kurashish ham mumkin bo'lmasdi.

O'z rejasini amalga oshirish uchun Birinchi konsullik davomida asirga olingan rus askarlarini qantarib, Rus imperatoriga quyidagilarni ma'lum qildi: Fransuz asirlarini qaytarish shart emas, deb. Tashqi ishlar vaziri Galeiran Napoleon topshirig'iga asosan Rus imperatoriga yana shularni yetkazdi: inglizlar va avstriyaliklar hech vaqtda Fransiya ustidan g'alaba qila olmasdilar, faqatgina ruslar Italiyada fransuzlar ustidan g'alaba qozondilar, degandi.

Rossiya bilan yaqinlashish maqsadida va rus podshosi Pavelni inglizlar bilan to'la gij-gijlash uchun Napoleon rus Podshosidan Malta oroli soqchilari Ordenining buyuk magistri bo'lishini iltimos qildi va 1800 yildagi urushda inglizlardan tortib olingan Malta orolini "xadya" qildi. Rus podshosi Napaleonning bunday saxiyligidan xayratda qolganligini yashira olmadi.

Napoleon o'zining yovuz niyatlarini amalga oshirish uchun Rus podshosiga ikki yuzlamachilik qilib, urush faqat inglizlarga kerak, biz esa tinchlik tarafdorimiz deya podshoni aldab, Siz janobi oliylarini 1799 yilda aldagani uchun Avstriyaning adabini berib qo'yishini ma'lum qildi.

Bu munozaralardan so'ng Pavel Parijga elchi yuborib, unga avvalo tinchlik haqida muzokara va kerak bo'lsa harbiy ittifoq haqida gaplashishini tayinlab, unga vakolat berdi. Parijga kelgan elchi Kolichev podsho topshiriqlarini xatosiz bajarishga astoyidil kirishdi.

Pavelning bu ittifoqdan maqsadi muzokaralar natijali bo'lsa, rus-fransuz birlashgan qo'shinlarini Hindistonga harbiy yurish uyushtirishda foydalanish edi. 24 ming kazak askarlarini Hindiston yo'lini bilish uchun O'rta Osiyoga yuboriladi.

Qit'adagi bu ikki kuchli davlatning yaqinlashuvini kuzatgan diplomatiya guruhlar katta tashvishga tushib qoldilar. Avstriya imperatori faqatgina og'izdagina emas balki yozma ravishda ham Pavelning Bonapart bilan bo'lgan

munosabati "mustahkam" emasligini bayon qilgan.

Katta tashvish ingliz siyosatchilari va diplomatlari boshiga tushgan. Ular rus podshosining Bonapart bilan bo'layotgan yaqinlashuvini buzish va Pavelni yo'ldan chetlashtirish uchun ingliz diplomatiyasining Peterburgdagi elchisi orqali ig'vo uyushtirilib, elchi Uitvort taniqli xonim Olga Aleksandrovna Jerebsova va uning akalari graf Platon Zubov, Nikita Panpn hamda ularnng bir qancha do'stlari bilan maxfiy aloqada bo'lib, fitna uyushtirishi natijasida Pavel o'ldiriladi va uning o'rniga o'g'li 24 yashar Aleksanr taxtga chiqdi.

Aleksandr 1801 yildan boshlab imperator deb e'lon qilindi, u xokimiyatni 1825 yilgacha boshqardi. Diplomatiya soxasida imperator Angliya bilan Fransiya o'rtasida "arg'imchoq" siyosatini olib bordi, u imperatorlik yillaridan boshlab Napoleon xarakatlari haqida gapira boshladi va keyinchalik Fransiya qarshi koalitsiya uyushtirib, uni boshqardi, Burbonlar tiklanishiniig tashabbuskori. Vena Kongressining tashkilotchisi, Muqaddas ittifoqning asoschisi edi.

Bu vaqtda esa Napoleon Angliya bilan tinchlik haqida muzokara yuritayotgan edi. Yarim yildan ko'proq vaqtda olib borilgan muzokaralardan so'ng Londonda bir qarorga kelishib, "sulx" tuzishga rozilik berildi va shundan so'ng Amen shahrida 1801 yilning oktyabrida Fransiya bilan Angliya o'rtasida sulx, imzolandi va u tarixga "Amen sulxi" nomi bilan kelgan. Amendagi inglo-frans sulxdan Napoleon va Taleyran katta foyda ko'rdi. Sulxga ko'ra Napoleon Misrdan o'z askarlarini olib chiqdi. Misrni Turkiyaga qaytarish majburiyatini oldi. Angliya esa hamma mustamlaka (Atlantika okeanidagi Trinidad oroli va Seylon tashqari) laridan voz kechdi. Hammasidan muhimi Angliya Gollandiya, Germaniya, Italiya Shvetsariya ishlariga aralashmaslik majburiyatini olish edi. Angliya bilan Fransiya o'rtasida 1802 yilda imzolangan Amen sulxi vaqtincha nafasni rostlab olish bo'lib, ko'pga cho'zilmadi. 1803 yilning martida yana ikki o'rtada dushmanlik mavqye boshlandi. chunki ingliz savdogarlari Amen sulxi biz uchun Yevropa davlatlarining darvozalari, xato Fransiyani ham o'ziga bozor deb o'ylagandilar. Lekin Napoleon o'ziga tobi bo'lgan mamlakatlarga ingliz

mahsulotlarini kirishiga qarshi edi. U har qanday iqtisodiy jangga tayyor edi. Ko'p o'tmay Angliya siyosatchi va diplomatlari o'zlarini Amendagi xatolarini tushunib yetdilar. Napoleon bilan sulxda bo'lish, bu Bonapartga Yevropani oyoq osti qilish huquqini berishdir deb o'yladilar. Napoleon ham o'z navbatida buni uzoqqa chuzilmaslikni bilardi, lekin bundan xech cho'chimasdi. Chunki Angliya bilan urush bo'lishi muqarrar edi. Bonapart Amen sulxiga ko'ra inglizlar Malta orolini bo'shatishi kerak edi, ammo Angliya bunga shoshilmayotgan edi. Napoleon bu haqida shunday o'ylagan edi: "Malta yoki urush", shu maqsadda transport kemalar va desant askarlarini tayyorlayotgan edi. Angliya elchisi bilan rasmona uchrashuv o'tkazilib, u 1803 yilning 12 mayida Parijdan chiqarib yuborildi. Bu davrdagi Frassiya va Angliya munosabatlari xalqaro diplomatyaning markazida turardi. 1804 yilning mayida Angliyada xokimiyat tepasiga yana Pitt keldi, u 1803 yildan boshlab tashqi siyosat va diplomatik ishlarga raxbarlik qilib kelardi. Pitt katta kuch bilan Napoleonga qarshi Yevropaning buyuk davlatlari ittifoqini tuzish uchun astoydil harakat qildi. Uning fikricha yangicha ittifoq tuzilmas ekan. Napoleon harakatlarini tuxtatish, ayniqsa uning Bulonda tashkil qilgan harbiy lageri Britaniyaga xavf tug'dirmoqda edi. Pitt rejasi Aleksandrga ma'qul bo'ldi. Napoleon xukmronligidan Yevropani ozod qilish fikri borgan sari xukmron bo'la boshladi. 1804 yildan boshlab Aleksandr yangi tashkil bo'layotgan ittifoqqa qo'shilishga rozi bo'ldi. Napoleon ishg'ol qilgan yerlar german davlatlari va Gollandiya, Italiya, Shveysariya yerlaridan nariga o'tmagan bo'lsa ham, lekin baribir dushman dushman edi. Aleksandr bilan Napoleon o'rtasidagi munosabatlar 1804 yilning bahoridan buzildi¹.

1804 yilning 21 martida Vensek qal'asining xandagida Napoleon buyrug'iga asosan qo'lga olingan graf Engiyenskiy otib o'ldirilgan edi, bu yer nemis tuprog'i Baden gersogligiga qarashli bo'lib, Napoleonning bunga daxldor emasdi. Napoleon ishlatgan bahona uni hayotiga suiqasd uchun yuborilgan deb, uni uldirishga qaror qilgandi. Napoleonning bu xarakati Yevropa

¹ История дипломатии. т.1., М., 1976. с.462

monarxlarining g'azabini qo'zg'atdi. Ammo birorta monarx unga qarshi chiqmadi. Faqatgina Aleksandr unga qarshilik notasi yubordi.

Unga javoban Napoleon Taleyran orqali shularni ma'lum qildi: agar Pavelning qotillari begona yurtda yurgan bo'lsa, uni Aleksandr xibsga olsa Napoleon qarshi bo'lmas edi. Rus podshosi ommaviy ravishda haqoratlangan edi, Shundan so'ng hozirgacha maxfiy holatda aytilgan bo'lsa, endilikda, ochiqchasiga Napoleon tomonidan Pavelning suiqasdini Aleksandr bilibgina qolmay, balki unga faol qatnashgan deb aytilgandi. Bunday shaxsiy xaqoratdan so'ng Aleksandr Pitt tomonidan beriladigan moddiy yordamni olishga rozi bo'ldi va Napoleonga qarshi kurashish ittifoqiga birichilar qatoriga qo'shildi va urushga tayyorgarlik ko'ra boshladi.

Pitt uchun ittifoqqa Avstriyani jalb etish oson edi. Chunki Lyunevel sulxining shartlaridan qutilishi kerak edi. Angliya. Rossiya va Avstriya hukmron doiralari zo'r berib Prussiyaga tazyiq uyutirish bilan uni ittifoqqa kirishga majbur qila boshladilar. Prussiya qattiyatlik bilan rad javobini berdi. Chunki qirol Fridrix-Vilgelm III avvalombor Napoleon hujumining birichi qurboni Prussiya bo'lishi mumkin edi. Bulondagi qo'shinlar to'g'ri Beryainga yuborilishi aniq edi. Shuning uchun Prussiya qiroli na ruslar va avstriyslar yordamiga ishona olmas edi.

Fursatdan foydalangan Taleyran zo'r berib Napoleonga Prussiyani qo'ldan chiqarmaslik va uni koalitsiyaga qo'shilishiga to'sqinlik qilishni surardi. Ittifoqchilarning so'zi o'tmagach bo'lar qo'rqitish, do'q-po'pisa yo'liga o'tdilar. Kunlar, oylar o'ta boshladi, lekin natija bo'lmadi. Shundan so'ng Aleksandr Prussiya chegaralarida turgan rus qo'shinlarini Berlinga kiritishini ma'lum qildi. Shunda qirol Prussiyaning betarafligini kim buzmoqchi bo'lsa, birinchi galda unga qarshi kurashini ma'lum qildi. Lekin tezda vaziyat o'zgarib, pruss qiroli Aleksandr elchisi Petr Dolgorukovga ijobiy javob qilib, imperator Aleksandr nomiga xat berishini aytgandi. Shundan so'ng qirol vazir Gardenbergni chaqirib, unga vaziyatning o'zgarganini tushuntirib, tezda xatni Dolgorukovga olib borishini topshiradi. Xatda. "Aleksandr uchun men o'z

qirolligim chegaralarini ochaman" deyilgandi². Prussiyadagi o'zgarish, ya'ni Napoleon Prussiyaning betarafligini buzdi, prusslar Rossiya bilan Avstriyaning yordamiga muxtoj kabi fransuzlar ittifoqchilarni ayniqsa Aleksandrni Berlinga borishga da'vat etdi. Bu yerga kelsa ahvol boshqacha, pruss qiroli Fridrix-Vilgelm III ga shunday xabar kelganki, Avstriyaning eng yaxshi armiyasi Bonapart tomonidan Ulma yonida ko'rshovga olingani aytilgandi. General Mak taslim bo'lib, qal'ani 32 ming askar bilan topshiradi. Aleksandr sakkiz kun davomida Pruss qirolini ittifoqqa kirishga kundira olmadi. Shundan so'ng Aleksandr Avstriyaga yo'l oldi, uni u yerda Austerlis voqealari kutardi.

Fursatdan foydalangan Taleyran Napoleonga Prussiyaning uzoqlashtirmaslikni o'qirdi va uning bilan ittifoq tuzishini talab qildi. Bu ittifoq, Napoleonni shunga olib keldiki, u kun sayin Prussiyaga qarshi urushga tayyorgarlik ko'ra boshladi. Taleyran zo'r berib Napoleonni Prussiya bilan yaqinlashishga undardi, keyinchalik Napoleon rozi bo'lib, ittifoq, tuzilsa Prussiyaga Gannoverning berishini aytdi. Lekin bu ittifoq uzoqqa cho'zilmadi. Napoleon 1806 yilning oktyabrida Bavariyaga va 8 oktyabrda Berlinga kirdi³. Prussiya tus-tupolonda qoldi.

Urush Prussiyaning taslim bo'lishi bilan yakunlandi. Napoleon Berlinga kirib borgach, uni katta tantana bilan kutib olindi, ulug' mehmon sifatida mulozamat ko'rsatildi. Hamma rasmiy ehtiromlar ko'rsatilgach, Napoleon o'zini Yevropaning xukmroni hisoblab, Berlinda Qit'ada iqtisodiy qurshov dekreti tuzilib, imzolandi, unga muvofiq Napoleonga tobi bo'lgan mamlakatlar Britaniya orollari bilan savdo va boshqa aloqalar qilmasligi, nafaqat Britaniya balki uning mustamlakalari bilan ham aloqa qilish man etilgandi. Napoleonga tobi mamlakatlarda ingliz millatiga mansub bo'lgan millatlar vakillari kamoqqa olinishi kerak edi.

Dekret Taleyran orqali hamma mamlakatlarga yuborildi, kimki dekreta buzsa, jazo olib, moli mulki musodara qilinar edi. Ushbu dekret faqatgina

² История дипломатии.т.1., с.463

³ История дипломатии.т.1., с.464

Inglizlarning maxsulotiga muxtoj bo'lgan mamlakatlar va Angliyani iqtisodiy ahvolini yomonlashtirmasdan, balki xukmron Fransiyaning ham iqtisodiy ahvoliga putur yetkazdi.

Qit'a qamali va Tilzit sulxi.

1807 yildan 1814 yilgacha Napoleon diplomatiyasining yangi davri boshlanadi. Bu davrda "Qit'a qamali" imperator diplomatiyasi va harbiy faoliyatining asosiy markazida bo'lib, uni borgan sari himoya qilib, uzoqqa cho'zilishini umid qilib bordi. Avvalgi mustaqil davlatlardan uzini saqlab qolgani, bu Rossiya edi.

1806 yilning dekabridan 1807 yilning iyunigacha o'tkazilgan ruslarning qonli kompaniyasi Prussiyani Napoleon jabridan saqlab qola olmadi. Rus qo'shinlarining jasurligiga qaramasdan Fridland yonida 1807 yilning 14 iyunidagi jang mamlakatlar taqdirini hal qildi⁴. G'alaba yana Napoleon tomonida bo'ldi.

Fridland voqeasidan so'ng Aleksandr o'z siyosatini tezda o'zgartdi. 1805 yildan boshlab ikki og'ir jangda rus qo'shinlari ustidan g'alaba qilgan xavfli dushman Nemanda turardi. Ittifoqchi Prussiya esa harbiy kuch sifatida emas edi. Angliya masalasiga kelsak Rossiyaga berilgan va'dalar, yordam oltin toj kabi to'lov qilingan edi. Ammo ular allaqachon unitilgan edi. "Shunday holatlar bo'ladiki, odamzod o'zini asrashi, o'ylashi kerak"⁵, -deganda Aleksandr Fridlanddan so'ng Aleksandr tezda o'zini o'nglab olib, Lobanov-Rostovskiyni tinchlik sulxi tuzish uchun Napoleon huzuriga yuboradi.

Aleksandr Tilzitda Napoleon bilan birinchi uchrashuvdayoq Napoleon bergan: "Nima uchun biz Siz bilan urushayapmiz davlat panox?" savoliga Aleksandr: "Men inglizlarni Siz kabi ko'rolmayman, ularga qarshi qanday chora-tadbir ko'rsangiz, men Sizning yordamchingiz", -degan javobni bergandi. «Unday bo'lsa sulx imzolandi», -deyavering deb Napoleon yakun yasaydi⁶.

Tilzitda sulx muzokaralari boshlanib ketdi. Napoleon uchun birgina sulx

⁴ История дипломатии.т.1., с.465

⁵ История дипломатии.т.1., с.465

⁶ История дипломатии.т.1., с.468

emas, balki ittifoq ham kerak edi. Ittifoq ham tuzildi. Bu sulx va ittifoqdan Aleksandrga nisbatan Napoleon ko'proq foyda ko'rdi, chunki shu g'olib edi. Bu tengsizlik albatta tabiiy edi. Aleksandr quyidagi majburiyatlarni oldi: 1. Napoleonning "Qit'a qamali" haqidagi dekretini Rossiya imperiyasida e'lon qilish; 2. Angliyaga qarshi urush e'lon qilish; 3. Napoleonning G'arbiy Yevropada qilgan va qiladigan o'zgarishlarini tan olish⁷.

Napoleon tomonidan Aleksandrga quyidagi "va'dalar" berildi. Iloji boricha Rossiyaga yaqin bo'lgan joylardan o'z qo'shinlarini ko'chirish; Turkiya taqsimlansa, Rossiyaga ulush berish: Prussiya bilan Rossiyani tamomila ajratish va yakkalesh maqsadida Napoleon Aleksandrga Prussiya yerlaridan Visla daryosigacha bo'lgan yerlarni Rossiyaga qo'shib olishni aytgandi⁸.

Shartnoma 1807 yilning 8 iyunida imzolandi. Xuddi shu kuni Prussiya bilan ham sulx imzolanib, Prussiya axolisi ikki barobar (10 mlndan 5 mlnga) kamaydi. Xududi ham ikki barobar qisqargan edi. Prussiya "Qit'a qamali" ni tan oldi⁹.

Angliyani asoratga solish masalasi Napoleonga tinchlik bermasdi. Men hamma narsaning uddasidan chiqaman deb aytgan edi, Napoleon o'z ukasi Lyusyenga, sen uning guvohi bo'lasan, albatta, bu so'zlar Tilzit sulxidan so'ng aytilgandi. Bosib olingan xududlarda tashkil qilingan qirollik va knyazliklarda o'z og'aynilarini o'tqazib, ular orqali, marshal va generallar orqali, yoki to'g'ridan-to'g'ri vassallik usulida ko'p joylarni o'ziga bo'ysundirdi. Avstriya imperatori va Prussiya qirolini vassallikka aylantirdi. Endilikda Napoleon Aleksandrdan bo'lak xech kim bilan gaplashmas va kelishmasdi ham, o'ziga tobe va qaram davlatlarga buyruq bilan ish ko'rardi, bo'ysunmaydigan yoki yuz o'giradigan betaraf mamlakatlarga qo'shin bilan borardi

Rossiyaga doimo xavf solayotgan narsa bu Rossiya chegarasida 1807 yili tashkil qilingan Varshava gersogligi edi. Napoleon Aleksandrga katta erkinlik berib, Shvetsiya qo'lidan Finlandiyani tortib olishini aytishdi. Lekin uni olish

⁷ История дипломатии.т.1., с.473

⁸ История дипломатии.т.1., с.474

⁹ История дипломатии.т.1., с.474

oson emasdi. Chunki, mablag' yo'q edi. Bundan tashqari Angliya bilan rus savdogarlarining ishi yurishmayotgan edi.

Shu tariqa Rus podshosi bilan munosabatlar yomonlasha bordi. Rus dvoryanlari va savdogarlari "Qit'a qamalii" Rossiyani halokatga olib keladi, der edilar, umuman rus-fransuz ittifoqini yoqtirmas edilar. 1806 yilda Aleksandr turklar bilan urushayotgan edi. Bu uzoq davom etgan urushda turklar har xil yo'llar bilan Parnadan yordam olib turdi. Napoleon o'zi bergan vadalarini bajarmadi. Xatto yashirincha turklarga yordam berdi. Telzitdagi muzokaralar davrida Turkiya haqida boshqa gaplar bo'lgan edi-ku degan ma'noni rus diplomatlari Taleyranga shikoyat tariqasida aytganlarida. Taleyran diplomatiya ham musiqaga o'xshaydi, agar kuy bastalangan bo'lmasa, uning bahosi chaqaga arzimaydi, degandi¹⁰. Aniqroq qilib aytganda Aleksandr ahmoq qilingan edi, ya'ni tuzilgan shartnoma moddalarida Turkiya haqida xech narsa deyilmagan edi. Napoleon og'zaki aytgandi, xolos.

1808 yilning bahorida Napoleon tomonidan Bayonna shahriga taklif qilingan Ispaniya qiroli oilasi qamoqqa olinadi va Ispaniyani ishg'ol qilishga kirishadi. Portugaliya esa ancha oldin bosib olingan edi. Ispaniyada uzoq davom etgan xalq urushi boshlanadi. Urushning qiyinchiliklari uning birinchi oylaridayoq ma'lum bo'lib qoldi. Avstriya esa Napoleonning ispan qiyinchiliklaridan foydalanib, o'zining g'olibiga qarshi turmoqchi bo'ldi.

Fransuz imperatori Avstriya xukumatining tanlab olgan vaqtini qo'lay ekanligini yaxshi tushunardi. Avstriyaning Parijdagi elchisi Metternix mamlakatning qurollanayotganini zo'r berib yashirardi, sir ma'lum bo'lib qolgandi. Prussiyada ham Avstriyaning ko'tarilishini sabrsizlik bilan kutayotganligini Napoleon yaxshi bilardi.

Shuning uchun Napoleon pruss qiroolidan vaziri Shteynni xaydab yuborishini qo'pol ravishda talab qildi. Shteyn Fridrix-Vilgelm III Napoleonga qarshi ko'tarilishini talab qilib, uni ishontirgan edi. Napoleon Prussiyadan qo'rqmasdi. U Rossiyadan xavfda edi. Rossiyaning Avstriyaga yordam

¹⁰ История дипломатии.т.1., с.475

bermasligini bilardi. Napoleon Avstriyani ikki tomonlama. ya'ni Rossiya va Fransiya tomonidan hujum qilinadi, deb qo'rqitmoqchi bo'lgan edi.

Erfut uchrashuvlari.

1808 yilning yozida Napoleon Aleksandrni uchrashuvga taklif qildi. Bu uchrashuv 1808 yilning 27 sentyabrida boshlanib, ikki hafta davomida Erfurt shahrida o'tkazildi. Bu uchrashuvda Napoleon to'g'irlab bo'lmaydigan katta xatoga yo'l ko'ydi, ya'ni Tilzit sulxidan so'ng rasmiy holatda istefoda bo'lgan knyaz Taleyranni kutilmagan xolda taklif qilgandi. Binobarin Taleyran Tilzit shartnomasidan so'ng shunday xulosaga kelgan ediki, "Qit'a qamali" Fransiyaning albatta Rossiya bilan urushga olib keladi. Bu urushda butun Yevropa ko'tarilishi mumkin va Fransiyaning halokatga olib keladi, deb uylardi. Uchrashuvga kelib Taleyran imperator Aleksandr I bilan maxfiy xolatda uchrashib, suxbat davomida "Yevropaning halokatdan saqlab qoling"¹¹, deb Aleksandrni iltimos qildi. Taleyran Rossiyaning kuchiga ishonar va unga butun Yevropa qo'shilishiga ishonar edi. Taleyran maslaxatiga ko'ra Aleksandr 1 Avstriya va Prussiyaga qarshi Fransiya bilan birgalikda urushish shartnomasiga imzo chekmadi. Bu xatta-harakatlarni bilgan Napoleon Taleyranni o'zining do'stlari davrasidan chetlashtirdi, xolos, jazolash uchun dalillar yetarli emas va yo'q edi.

1809 yilda bo'lgan Fransiya - Avstriya urushi g'alabani yana Napoleon foydasiga hal kildi, 1809 yilning 14 oktyabrida imzolangan Shenbrunn sulxiga ko'ra bir qancha xududlaridan ajralib qoldi. Aleksandr bu urushga qatnashmadi. agarda ruslarning "nazorat korpusi"ning Avstriya chegarasida turganligini hisobga olmganda. Buning alamiga Napoleon Avstriyadan tortib olingan Galitsiya (G'arbiy Ukraina) ni avvaliga Rossiyaga bermoqchi edi. Keyinchalik bu yer Varshava gersogligiga berildi. Bu bilan o'zining yashirib yurgan maqsadini amalga oshirish, ya'ni Polshani tiklash edi. Napoleon Aleksandrga Avstriyadan Garnopol yerlari va Tarnopod viloyatini ajratib olishni aytgandi.

¹¹ История дипломатии.т.1., с.477-478.

1811 yilning 15 avgustida birinchi bor Parijdagi rus elchisi Kurakln bilan, ikkichi bor 1812 yilning iyunida general Balashov bilan Vilnoda uchrashganda Napoleon Aleksandrga qilgan ikki xadyasi, ya'ni 1807 yilda Prussiyadan olingan Belostok yeri va 1809 yilda esa Avstriyadan olingan Tarnopol yerlari haqida ochiqcha aytgan edi. Bu bilan Napoleon uzoq vaqtlargacha Rossiyaning Prussiya va Avstriya bilan urishtirmoqchi edi.

Rossiya bilan munosabat 1809 yilning oxiri va 1810 yilning boshlarida buzilgandi, buning sababi, Napoleonning Aleksandrning singlisi Anna Pavlovnaga uylanish nikohining mustahkam bo'lmaganligi tufayli imperatorlar munosabati tamoman buzildi.

Bu ishda boy bergan Napoleon o'z xatosini tuzatib, Avstriya imperatorining qizi, ersgersogina Mariya-Luizaga uylanadi. Bu nikohning diplomatik mohiyati juda katta edi, chunki Avstriya tulig'inchagina Fransiya tobe edi.

1810 yilning yozidan boshlab, avvaliga sustroq, keyinchalik tezlashgan holda, ikki imperiyaning urushga tayyorgarligi kuchaydi¹².

Peterburgdagi fransuzlar elchisi Kolenkur, rus kansleri graf Rumyanseze va Fransiyaning Rossiyadagi boshqa elchilari singari Rus-fransuz ittifoqini saqlab qolishga qarakat qildilar. Bularning harakatlari zoe ketdi. Rossiyadagi oqsuyaklar ham, o'rta xol dvoryanlar ham va savdogarlar qit'a qamalidan zarar ko'rayotgan edilar. Dvoryanlarning bezovtaligining yana bir sababi, bu krepostnoy huquqning tulig'inchagina saqlanib turishini istardilar. Fransuzlar imperatori bilan bo'layotgan do'stlik ana shu huquqqa putur yetkazmasin deb qo'rqardilar, chunki Telzitdan so'ng Prussiyada va Germaniyaning katta qismida bunday huquq bekor qilingan edi.

Mariya-Lunzaga unlanish Avstriya bilan Fransiya ittifoqini mustahkamlaydi. deb ishonardi Napoleon. Lekin baribir Rossiyaning qit'a qamaliga bo'lgan munosabati Napoleonning jaxlini chiqardi. 1810 yilning dekabrda Aleksandr xorijdan keltiriladigan mol-maxsulotlar uchun yangi qonun-qoidalar qabul

¹² История дипломатии. т.1., с.477-478.

qilinib, unga imzo chekdi, unga kura Fransiyadan keltiriladigan zebi-ziynat buyumlari, vino va boshqa maxsulotlarning qiymatiga qarab ularga kirim solig'i ko'paydi, bu Napoleonning fikricha to'ppadan-to'g'ri Fransiya kurashga chaqirish edi. 1811 yilning 15 avgustida diplomatik korpusning tantanali qabulida Napoleon Rossiya elchisini knyaz Kurakinga yaqinlashib, Rossiya haqida ta'na so'zlarini aytgan. Ruslar ittifoqchisiz qoldi, Avstriya, Prussiya sizlardan yuz o'girdi, chunki, Rossiya Avstriyadan Tarnopolni, Prussiyadan Belostokni tortib oldi, bu davlatlar Rossiya-orqasidan bormaydi!. Shvesiya ham sizlarga ergashmaydi, chunki uning qo'lidan Finlyandiya olingan edi. Bilmadim sizlarni yenga olamanmi, yo'qmi, lekin baribir urishamiz, -deb o'z gapini tugatadi¹³.

Bu gaplardan so'ng urushning yaqin orada boshlanishiga xech shubha qolmadi. Napoleon Qit'ani Rossiyaga qarshi deb, xato uylagandi, aksincha hamma davlatlarning umidi va nigohi Rossiyada bo'lib, Yevropani asoratdan faqat Rossiyagina qo'tqarishi mumkin deb ishonardilar.

Napoleon Rossiya bilan urushadigan bo'lsa Turkiya va Shvetsiyaga suyanadigan bo'ldi, lekin puxta va o'ta ustakorlik bilan M.Kutuzov Turkiya bilan Rossiya uchun juda katta foyda beradigan sulx tuzishga muvoffaq bo'lgandi. Bu sulx 1812 yilning mayida, urush boshlanish arafasida imzolandi¹⁴.

Turkiyani bu ahvolda ko'rgan Napoleonning jaxli chiqib, Turkiyani qanaqa ahmoqlar boshqarayapti degandi. Shvetsiyani Napoleonning sobiq marshali Karl Bernadott voris-shaxzoda sifatida boshqarayotgan edi. Unga ikki xil taklif qilindi: Napoleon Shvetsiyaga Finlyandiya berishni va'da qildi. Agar u Fransiya tomonida turib, Rossiyaga qarshi urushsa. Aleksandr esa Shvetsiya Fransiya qarshi Rossiya tomonida turib urushsa, Norvegiyani bermoqchi bo'ldi. Bernadott Aleksandr tomoniga burildi. Chunki Norvegiya Finlyandiya nisbatan boy edi. Shvetsiyaga Norvegiyani olgach, Rossiya bilan urushmaslikni kelishib qo'ydi.

Napoleon Rossiya bilan urushishga ahd qilgani uchun keyinchalik qattiq

¹³ История дипломатии.т.1., с.479.

¹⁴ История дипломатии.т.1., с.480.

pushaymonda edi. Chunki na Shvetsiya, na Turkiya Rossiyaga qarab turdi. Kuchlar nisbati ana shunday bo'lgan vaziyatda 1812 yilgi rus-fransuz urushi boshlandi va tamom bo'ldi. Urush boshlangach Angliya ham Rossiya bilan sulx tuzdi. Bu urushni butun Yevropa kuzatib, Yevropaning taqdiri nima bo'larkan deb, turgan diplomatlar va siyosatchilar urush tugashini sabrsizlik bilan kutardilar.

Yevropa taqdirini xal qilishda ikki yo'nalish bor edi, feldmarshal Kutuzov fikricha rus-fransuz urushi tamom bo'lgach, Rossiya tuprog'idan dushmani xaydab chiqargach, urushni tuxtatish kerak bo'ladi, chunki mamlakat va qo'shinlar kuchini qolish lozim, derdi Kutuzov, Qit'a kimga kerak Napoleon zulmidan saqlab qolsin, deb, bu masalada Angliyani ayblardi. Britaniyani (yaramas orol derdi va uni yoqtirmasdi, orolni yer yutsa yaxshiroq bo'lardi, deb uylardi.

Aleksandr esa Napoleon bilan hisoblashish davri endi kelyapti, derdi. Podshoning bu fikrini Angliya qo'llab-quvvatlaydi, chunki Angliyaning o'zi Napoleonga bas kelolmasdi. Napoleon Rossiyada yengilgach rus qo'shinlari Neman orqali, keyinchalik Visla orqali Yevropaga o'tadi Yevropa davlatlarining Napoleonga qarshi kurashiga ko'pdan buyon Napoleon xukmronligi ostida ezilib kelayotgan Germaniya bilan Italiya ham qo'lladi.

Napoleonga qarshi butun Yevropaning shiddatli kurashi boshlandi. Birinchi qatorda diplomatlar emas, balki generallar turdilar. Napoleon hukmronligi barbod qilish ishi anchagacha cho'zildi. Napoleon o'zini o'nglab oldi va yangi katta qo'shin to'pladi, bu qo'shin bahor va yoz oylarida pruss va rus qo'shinlariga katta zarba berdi. Aleksandr bir necha bor yengilishiga qaramasdan Napoleon bilan kelishishni istamadi. Pruss qiroli esa qo'rqib, joyidan jilmasdan turdi.

Aleksandr va Fridrix-Vilgelm III birinchi bor emas, balki to'rtinchi bor imperator Fransiya ittifoqqa chaqirdilar, lekin u Metternixning gapiga kirib, ittifoqchilarga birlashishga shoshilmadi. Metternix Napoleonga nisbatan Aleksandrda xavfda edi. Napoleon Yevropani g'alayon va inqiloblardan

saqlab turibdi, agar bordiyu Aleksandr g'alaba qilib, Napoleonni tor-mor keltirsa, Yevropada Napoyayeondan kuchyairoq qukmron paydo bo'ladi, deb o'ylardi. Frans I ham Napoleonga ishonardi, u imperiya vorisi. Napoleon va Mariya-Luizaning o'g'li, Napoleon unga Rimning kichik qiroli deb nom bergandi, shu nom bilan imperiya hukmroni bo'ladi, derdi. Metternix esa Napoleondan yashirincha ittifoqchilar bilan muzokara olib borardi, agar Yevropa davlatlarining olib borgan kurashida Napoleon yengilsa Avstriyaga avval tortib olgan yerlarini qaytarib berar, deb uylardi.

Bir necha muloxazalardan keyin Metternix Napoleon bilan muzokara olib borish uchun vositachilik qilishni o'z zimmasiga oldi. 1813 yilning iyunida Avstriya vakillari Rossiya vakili Nesselrod va Prussiya vakili Gan Gardenberg bilan kelishgan xolda Napoleonga quyidagi sulx shartlarini qo'ymoqchi bo'ldilar. 1.Varshava gersogligidan voz kechadi; 2. Prussiyaga Dansinni qaytarish; 3.1309 yilda Avstriyadan tortib olingan Illiriyann qaytarib berish; 4.Tamburg va Lyubek shaharlaridan o'z qo'shinlarini olib chiqish. 5.Gardenberg fikricha Napoleonning Reyn ittifoqi yeridan protektorligini bekor qilish va Tilzit sulxi bo'yicha olingan yerlardan xech bo'lmaganda bir qismini talabini qo'yish edi. Pekin Metgernix sulxida tezroq tuzish maqsadida bu taklifga ko'nmadi¹⁵.

Bu shartlar juda yengil bo'lib, Aleksandr bundan qanoat xosil qilmadi, bordi-yu bu shartga Napoleon ko'nsa unda nima bo'ladi, deb Aleksandr suraganda Metternix muzokara davomida yana yangi talablar qo'yila beradi, deb javob qaytardi.

20 iyunda Metternix Napoleon yashaydigan nemis shahri Drezdenga keladi va uchrashadi. Suhbat bir necha soat davom etadi. Sulx shartlari bilan tanishgan Napoleon hech qanaqa yon bosishga ko'nmadi, aksincha Metternixga qichqirib, Angliyadan olingan pul juda shirin ekanda, deb uni sharmanda qildi va keyinroq bo'lsa ham men Venaga kirib boraman, o'shanda ahvolingiz nima bo'ladi, ko'ramiz, degandi. Qit'a Fransiyaning tijorat bozori va mustamlakasiga

¹⁵ История дипломатии.т.1., с.487

aylanadi, deb so'zini davom ettirdi Napoleon. Angliya bilan bo'ladigan urush g'alaba bilan tugaydi. Hamma narsa bizniki yoki hech narsa, Napoleonning shiori shunday edi. Sizlar menga qarshi urush e'lon qila olmaysizlar, deb so'zini yakunladi, Napoleon. Muzokara barbod bo'lgandan so'ng, 1813 yilning 10 avgustida Avstriya rasman Napoleonga urushga kirdi. Urush boshlandi, 1813 yilning 16-19 oktyabrlarda davom etgan uch kunlik daxshatli urushdan so'ng Napoleon Leyppndan Franpiyaga chekindi.

Ittifoqchilarning qo'shinlari Fransiyaga kirib keldi va ular yana sulh haqida gapirib, Napoleonga qat'iy talab qo'ydilar. 1814 yilning fevralida Shomon shaxrida tinchlik muzokaralari boshlanib¹⁶, Napoleon tomonidan Kolenkur qatnashayotgan edi. Napoleonga 1792 yildagi chegara bo'yicha imperiya yeri qoldirilib, hamma bosib olingan yerlardan voz kechishi kerak edi. Jahli chiqqan Napoleon Kolenkurga baqirib, men uchun haqorat bo'lgan takliflarni aytishga yuraging qanday dov berdi, degandi.

Xulosa

1814 yil 1 martda qabul qilingan Shomon traktatiga ko'ra ittifoqchilarning har biri 150 mingdan qo'shin tuplashini talab qilishdi. Angliya esa mablag' bilan ta'minlash majburiyatini oldi. Ittifoqchilar oxirigacha kurashib, Yevropani Napoleongacha bo'lgan holatiga keltirishni maqsad qilib qo'ydilar. Tuzilgan Shomon traktati Angliya, Rossiya, Avstriya va Prussiya vakillari tomonidan imzolangan edi. Bu traktat Yevropa mamlakatlarining uzoq muddatgacha diplomatiya faoliyatining asosi bo'lib qolgandi, u 1822 yilgacha davom etdi.

1814 yilning 30 martida ittifoqchilar Parijga kirib bordilar. Bir necha kunlardan so'ng Napoleon taxtdan voz kechib, Elbaga, shu orolning "imperator" sifatida junab ketdi. Fransiya taxtiga inqilob tufayli ag'darilgan Burbonlar sulolasining vakili, qatl qilingan qirol Lyudovik XVI ning ukasi Lyudovik XVIII nomi bilan taxtga chiqdi.

Shunday qilib, Napoleon xukmronligi davridagi Xalqaro munosabatlar va

¹⁶ История дипломатии.т.1., с.489-490.

Fransiya diplomatiyasi sodir bo'layotgan voqealar va urushlarga qarab o'zgarib bordi. Napoleon diplomatiyasining gullagan davri Tilzit sulxigacha bo'lib, undan keyin tushkunlikka yuz o'giradi va Rus-fransuz urushidan so'ng, xalqlar urushi natijasida imperiya yengilib, diplomatiya sungandi. Shu bilan birga bu davrdagi xalqaro munosabatlarda Rossiya imperiyasining imperatori Aleksandr ham o'zining munosib o'rnini egallay oldi.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. История дипломатии. т.1. М..1976.
2. Е.В.Тарле.Наполеон,М..1957;
3. Е.В.Тарле Талейран, М..1957.
4. А.З.Манфред. Н.Бонапарт, М.,1973.
5. История Франции. Д, из-во, "Наука",М.1973.